

SHAXSNING IJTIMOY-PSIXOLOGIK XARAKTERISTIKASI

Shukurova Ugiylov Umarovna

Psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Guliston davlat pedagogika instituti

u-u-shukurova@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.14551565>

Annotatsiya: Ushbu maqolada shaxsning ijtimoiy-psixologik xarakteristikasi va shaxsning tuzilishi haqida olimlarning ilmiy taxlillari ta'riflari berilgan hamda shaxsning ijtimoiy hayotda tutgan o'rni haqida qarashlar bayon qilingan. Bugungi kunda psixologiya sohasida shaxsning tuzilishi va uning komponentlari to'g'risidagi muammoli savollar o'zining dolzarbligi bilan ajralib turadi. Psixologiya sohasida ushbu muammoni o'rganish uchun bir qator tadqiqot ishlari olib borilmoqda.

Kalit so'zlar: statik tuzilish, umuminsoniy psixologik xususiyatlar, ijtimoiy o'ziga xos xususiyatlar, individual, betakror xususiyatlar, ichki tizim, milliy, kasbiy, iqtisodiy, siyosiy, sinfiy birlik, psixologik qiyofa, yo'nalganlik ijtimoiy shartlangan, osttuzilish, dinamik qurilma.

Ilmiy tadqiqot olib borayotgan olimlar tomonidan shaxsning ijtimoiy-psixologik xarakteristikasini o'rganilishida bir chet ellik va mustaqil davlatlar hamdo'stligi mamlakatlarining qator olimlarini fikrlari va ilmiy qarashlarini inobatga olish zarur bo'ladi. Jumladan B.D.Pariginning fikricha, shaxsning statik tuzilishga quyidagilar kiradi:

- 1) umuminsoniy psixologik xususiyatlar;
- 2) milliy, kasbiy, iqtisodiy, siyosiy, sinfiy birlikka aloqador ijtimoiy o'ziga xos xususiyatlar;
- 3) shaxsning individual betakror xususiyatlari.

Bizningcha, olim tomonidan ta'kidlab o'tilgan xususiyatlarning har qaysisi shaxs psixikasida mavjud bo'lib, ular alohida xislatlar guruhi ko'rinishiga ega emasdir.

Amerika qo'shma shtatlaridan psixolog G.Ollportning fikricha, shaxs "ichki tizim", "dinamik qurilma", "Men", "qandaydir metapsixologik Men" o'zida oldindan maqsad va dispozitsiyani aks ettiruvchi, inson tafakkuri va xulq-atvorida mutanosib ravishda qaror toptiruvchi jonzotdir". Xuddi shu boisdan shaxsning sinfiy-tarixiy jihatdan yaqqol baholanishi ochilmay qoladi, ijtimoiy tahlil o'rnini psixologik talqin egallaydi.

B.D.Pariginning qat'iy asoslanib aytishiga ko'ra, shaxsning dinamik strukturasining etakchi (farqlanuvchi) alomati yaqqol vaqt oralig'iga bog'liqligi, shaxs faoliyati yoki psixikaning muayyan holatiga aloqadorligidir. Shaxsning dinamik strukturasining ikki asosiy jabhaga taalluqligiga, ya'ni psixik holatlarga va xulqqa ishora qilgan B.D.Pariginning mulohazasicha, shaxsning kayfiyati yoki psixologik jihatdan o'zining tayyorgarlik xislati yuksak ahamiyatli yangilanishdir.

K.K.Platonov tomonidan ilgari surilgan shaxsning dinamik funksional tuzilishi (strukturasini) katta qiziqish uyg'otadi. Olim shaxs xususiyatlarining barcha boyligini qamrab oluvchi, ko'p bosqichli modelini yaratishga intiladi. Shaxs tuzilishining elementlari bo'lib, uning hossalari, xususiyatlari, qiyofasi hisoblanadi. K.K.Platonov shaxs tuzilishining turli tomonlari bilan o'zaro aloqador to'rt tuzilishga ajratadi:

- 1) shaxsning axloqiy qiyofasi munosabati va yo'nalganlik birlashtiruvchi ijtimoiy shartlangan osttuzilish.

Bu osttuzilishga aloqador shaxsning xislatlari tabiiy mayllarga bevosita bog'liqligi yo'q va tarbiyaviy yo'l bilan shakllantiriladi.

2) tajribaning osttuzilishi; unga ta'limiy yo'l bilan egallangan bilimlar, malakalar, ko'nikmalar, odatlar kiradi, ammo bu narsa shaxsni qiyofasining biologik shartlangan ta'siri ostida kechadi (K.K.Platonov). Ushbu osttuzilish orqali shaxs insoniyatning tarixiy tajribasi,

3) shaxsning individual xususiyatlari bilan shartlangan ba'zi psixik jarayonlar (xotira tipi, emotsional harakat barqarorligi ko'rsatkichi, mashqlanish yo'li) bilan shakllantiriladi. Biologik shartlangan xususiyatlarning ta'siri yanada aniqroq ko'zga tashlanadi.

4) biologik shartlangan osttuzilish biopsixik xususiyatlarni, fazilatlar, temperament...(shaxsning tipologik xususiyatlarini), jinsiy va yosh xususiyatlar, shuningdek, insonning patologik o'zgarishini birlashtiradi. Bu osttuzilish mashqlantirish orqali shakllantiriladi, miyaning morfologik va fiziologik xususiyatlariga bog'liq. K.K.Platonovning fikricha, bu osttuzilishga shaxs qiyofasi (xususiyatlari) ning asosiy jabhalarini kiritish mumkin.

V.S.Merlin ham shaxsning tuzilishi masalasiga alohida ahamiyat bergan olimlardan biri sanaladi. Uningcha, shaxsning qismlariga ajratib talqin qilinmaydigan jabha (komponent) - bu uning xislatlaridir. Ularning har biri muayyan yo'nalganlik mohiyatini o'zida mujassamlashtirgan bo'lib, shaxs munosabatini aks ettiradi. Shunga binoan shaxs ning tuzilishi deganda V.S.Merlin insonning o'z-o'ziga, o'zgalarga, mehnatga u yoki bu munosabatini o'zida birlashtiruvchi shaxs xususiyatlarining tashkiliy va o'zaro aloqadorligini anglatuvchi o'ziga xos "simptomokompleks" ni tushunadi.

Xulosa qilib aytganda shaxsning ijtimoiy-psixologik xarakteristikasini o'rganilayotganda bir qator olimlarni fikrlarini taxlil qiladigan bo'lsak, B.D.Parigin shaxsdagi umuminsoniy psixologik xususiyatlar milliy, kasbiy, iqtisodiy, siyosiy, sinfiy birlikka aloqador ijtimoiy xususiyatlar shaxsning individual betakror xususiyatlarini ta'kidlab o'tgan.

Amerika qo'shma shtatlari psixologi G.Ollportning esa shaxsni "ichki tizim", "dinamik qurilma", "Men", "qandaydir metapsixologik Men" o'zida oldindan maqsad va dispozitsiyani aks ettiruvchi, inson tafakkuri va xulq-atvorida mutanosib ravishda qaror toptiruvchi jonzo deb hisoblaydi. K.K.Platonov tomonidan ilgari surilgan shaxsning strukturasi katta qiziqish uyg'otadi.

Demak shaxs tuzilishi muammosini uzil-kesil hal qilinishi, yechimini topish uchun ayrim shartlarga rioya etilishimiz lozim.

References:

1. Xaydarov F.I., Xalilova N. "Umumiy psixologiya". T.: "Fan va texnologiyalar" markazining bosmaxonasi : 2009.
2. Ivanov I., Zufarova M. "Umumiy psixologiya". O'z.FMJ., 2008.
3. Nishonova Z.T., Alimbaeva Sh.T., Sulaymonov M. "Psixologik xizmat".T. "Fan va texnologiyalar" nashriyoti 2014 y.